





## FARG'ONA VILOYATI BESHARIQ TUMANI HOKIMINING QARORI

№ 87

« 13 » 02 2021-yil

**Beshariq tumani N.Axmedov saxovati MMTP hududidagi tuman hokimligi zaxirasida bo'lgan yer maydonida bog'dorchilik yo'nalishida fermer xo'jaligi tashkil etish uchun tanlovda g'olib bo'lgan fuqaro Dehqonov G'anijon Turg'unovichga uzoq muddatli ijarada foydalanish uchun yer maydoni ajratib berish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2005-yil 19-noyabrda 1523-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer maydonlarini berishda tanlov g'olibini aniqlash tartibi to'g'risida"gi Nizomga, tuman hokimligi huzuridagi fermer xo'jaliklariga yer maydonlarini (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha komissiyasining 26.01.2021-yildagi yig'ilish qarori va Xalq deputatlari Beshariq tumani Kengashining 30.01.2021-yildagi VI-XXVII/127-sonli qarorini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi "Fermer xo'jaligi to'g'risida" gi va O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" gi Qonunlarining 6-,25-moddalariga va to'plangan hujjatlarga asosan,

### QAROR QILAMAN

1. Tuman hokimligi huzuridagi fermer xo'jaliklariga yer maydonlarini (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha komissiyasining 26.01.2021-yildagi yig'ilish bayoni va Xalq deputatlari Beshariq tumani Kengashining 30.01.2021-yildagi VI-XXVII/127-sonli qarori asos uchun qabul qilinsin.
2. N.Axmedov saxovati MMTP hududidagi 140, 141, 142, 143, 144, 103, 102, 104, 105, 106, 107, 108-konturlardagi jami; 24.0 gektar shundan; 20.7 gektar bo'z yerlar, 1.3 gektar ariq va zovurlar, 2.0 gektar boshqa yer maydonlari bog'dorchilik yo'nalishida fermer xo'jaligi tashkil etish uchun tanlovda g'olib bo'lgan fuqaro **Dehqonov G'anijon Turg'unovichga** 48 yil muddatga ijarada foydalanish uchun ajratib berilsin hamda yer maydonini uzoq muddatli ijaraga olish shartnomasini rasmiylashtirish vazifasi tuman Kadastr Agentligi Beshariq tumani bo'limi boshlig'i (M.Madaminovga) ga yuklatilsin.
3. Beshariq tumani "Davlat xizmatlari markazi" boshlig'i (M.Obidov) ga ushbu fermer xo'jaligiga qo'shimcha yer maydoni ajratib berilishi munosabati bilan o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish vazifalari yuklatilsin.
4. Tuman Statistika bo'limi (O.Komilov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (T.Xusanov)larga:  
- yagona davlat reestriga kiritish hamda soliqlar to'lanishi va hisobotlarni topshirilishini nazorat qilish vazifalari yuklatilsin.
5. Tuman tijorat banklari rahbarlariga yangi tashkil etilayotgan fermer xo'jaligiga bankda hisob raqam ochish topshirilsin.
6. Mazkur qarorni ijrosini nazorat qilish tuman hokimining Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari S.Artaqov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



R. Jo'rayev

